

va texnologiya», 2005

2. Saidova M. J., Qosimov F. M. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun ishlanmalar // Metodik qo'llanma. Buxoro, 2019.

3. Saidova M. J., Boshlang'ich sinflar uchun nazorat ishlar to'plami. // Metodik qo'llanma. Toshkent, 2019.

4. N. Abdurahmonova, L. O'rinboyeva. Matematika. 2-sinf uchun darslik/ Toshkent, «Yangiyo'1 Poligraf Servis» 2018.

5. Khaydarova M. Педагогические возможности индивидуального подхода к процессу начального образования // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3

6. Zafarovna H. M. Increasing information competence through inclusion in mathematics lessons in primary school // Asian journal of multidimensional research. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 509-512

7. O'rinboyeva L. (va boshqalar) 2-sinf matematika darsligi.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi 2021.-192 bet.

8. O'rinboyeva L. (va boshqalar) 1-sinf matematika darsligi.-Toshkent: Respublika ta'lim markazi 2021.-160 bet.

9. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.

10. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550

11. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.

12. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).

13. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //European research. – 2020. – С. 132-134.

14. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.

15. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitolological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com.2020.321-326>.

16. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat – hazrati Xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

17. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*.

18. Xudoyberdiyeva N. Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 // Научно-практическая конференция. – 2022.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING RUS TILIDA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH.

Davranova Gulbahor Numondjonovna
BuxMTI 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Til o'rganishning kaliti so'z boyligini orttiruvchi lug'at hisoblanadi. Lug'at - imlo savodxonligini oshirishning muhim manbaidir. Chunki lug'atlar bilan ishlash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini orttiradi, o'quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi hamda kreativligini rivojlantiradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining rus tili darslarida lug'atlar bilan ishlash jarayonida kreativligini oshirishning usullari va metodikalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: So'z, lug'at, rus tili, nutqiy kreativlik, nutq, imloviy savodxonlik, atama, imloviy lug'at, ibora, tasviriy ifoda, dunyoqarash, kreativlik.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutq faoliyatining har xil turlari (nutq, tinglash, o'qish va yozish) bo'yicha maqsadli, tizimli, lingvistik asosda o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarning har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o'qitish, nutq madaniyatini o'stirish, yozma va og'zaki nutq mashqlarini uyg'un holatda olib borishdir. O'z navbatida lug'atlar bilan ishlash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug'atlar bilan ishlash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so'z boyligini orttiradi, o'quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi.

Talabalar nutqini rivojlantirishning *birinchi yo'nalishi* ruscha adabiy talaffuz me'yorlarini o'zlashtirish, so'z shakllarini shakllantirish, iboralar va jumlarlar tuzish, so'zlarni leksik ma'nosi va uslubiga mos ravishda ishlatishdir.

Ikkinchi yo'nalish - so'z boyligini va nutqning grammatik tuzilishini boyitish.

Uchinchi yo'nalish - fikrlarni izchil taqdim etish qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish. Uyg'un nutqni rivojlantirish maxsus mashqlarni bajarish paytida va taqdimot va kompozitsiyaga tayyorlanish jarayonida amalga oshiriladigan so'zlashuv mazmuni, tuzilishi va lingvistik dizayni ustida ishlashni o'z ichiga oladi. Unga mavzuni tahlil qilish, uning chegaralarini aniqlashtirish, asosiy g'oyani aniqlash, unga muvofiq reja tuzish, materiallarni tizimlashtirish va kerakli til vositalarini tanlash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirish kiradi.

Darslarga tayyorgarlik jarayonida barcha tanlangan materiallar tahlil qilinadi va tushuntirishni talab qiladigan so'zlar ajratib ko'rsatiladi. Bunday so'zlarni tanlashda bolalar uchun so'zning yangilik darajasi, uning matnni yoki gapni anglashdagi ahamiyati, so'zni o'quvchilarning faol lug'at tarkibiga kiritish zarurati hisobga olinadi. Tanlangan so'zlarni doskada, plakatda yozish mumkin. So'zning ma'nosi bo'yicha ishlash, albatta, talaffuz va imloga sharhlar bilan birga keladi. Keyin ushbu so'zlar daftarga yoziladi, ular muloqot qilish va ularni faol lug'atga kiritish uchun eng qimmatlidir.

O'quvchilarning so'z boyligi maktabdan tashqarida (kattalar bilan muloqot qilish, kitoblar va gazetalarni o'qish, filmlar va teledasturlar tomosha qilish, radio tinglash natijasida) va maktabda (har qanday o'quv mavzusini o'rganayotganda) kengayadi. Har bir mavzu bolalar uchun, avvalambor, maxsus lug'at va frazeologiyani, masalan, adabiy, ijtimoiy-siyosiy, biologik va boshqa jihatlarni o'zlashtirishga imkon beradi, ammo o'quvchilarning so'z boyligini boyitishda rus tili darslari alohida rol o'ynaydi, ularda turli xil leksik va semantik guruhlar bilan bog'liq umumiy so'zlar ustida ishlash olib boriladi. O'quvchilarning so'z boyligini rus tili o'qituvchisi faoliyatidagi maxsus va eng muhim yo'nalish sifatida boyitish, birinchi navbatda, bolalar uchun noma'lum so'zlarni va ko'p ma'noli so'zlarning individual ma'nolarini tushuntirish (semantizatsiya qilish), polisemantik so'zlarning ma'lum ma'nolarining ma'nosini (semantikasini) aniqlashtirish va bolalarga so'zlardan aniq foydalanishni o'rgatish; ikkinchidan, bolalarda nutq turi va uslubiga qarab so'zlarni ishlatish qobiliyatini rivojlantirish; uchinchidan, o'quvchining so'z boyligidagi dialektal yoki mahalliy so'zlarni (agar mavjud bo'lsa) ularga teng keladigan adabiy so'zlar bilan almashtirish.

Shu bilan birga, o'quvchining so'z boyligi qanchalik katta bo'lsa, uning nutqi shunchalik jozibali bo'ladi, til aloqaga qanchalik yaxshi xizmat qilsa, o'quvchining turli uslubdagi asarlarni yaxshi tushunishi ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atlar ustida ishlash jarayonida kreativligini oshirish uchun quyidagi metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi:

1. Badiiy asar o'quvchilar nutqini oshirish uchun eng muhim va ishonarli manbadir. O'qituvchi hafta davomida o'quvchilarga turli ertaklarni o'qittirib, notanish bo'lgan so'zlarni ajratib, uning ma'nosini tushuntirishi va kelasi badiiy asarni o'qilguncha bu so'zlarni yozdirib yodlattirishi zarur. Chunki, bolalar o'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar orqali o'zlashtiradilar.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish;

3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish;

4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

5) Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

3. O'quvchilarning so'z boyligini takomillashtiruvchi va boyituvchi vositalardan biri bu atrof-muhitdir. Shuning uchun darsdan tashqari holatlarda o'quvchilarni turli ekskursiyalarga olib chiqish juda katta ahamiyatga egadir. Chunki, tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar

narsava hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

4. Dars davomida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Bunda o'qituvchi dars davomida turli xil video va audio matnlardan foydalanishi mumkin. Masalan o'qish darsini oladigan bo'lsak, darslikda berilgan har bir hikoya va ertakni audiosi yoki video variantlarini o'quvchilarga qo'yib berishi, hamda bu matnni kitoblardan foydalanmagan holda o'quvchilardan gapirib berishlarini so'rash, zarur dars oxirida esa matnda uchragan notanish so'zlar ustidan ishlash, ularning ma'nolarini tushintirib berish zarur.

5. Turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning kreativligini, reaksiyaviyligi hamda zukkoligini o'stiruvchi eng asosiy vositadir. Shuningdek lug'atlar ustida ishlash jarayonida ham didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Masalan: "Кто знает много слов?" didaktik o'yinini olaylik. Bunda o'qituvchi rus tili darslarida har bir dars davomida o'zlashtirilgan so'zlar yuzasidan musobaqa uyishtiradi. Bu o'yinda barcha o'quvchilar ishtirok etadilar. Har bir dars davomida o'zlashtirilgan so'zlarni o'quvchilar bittadan aytadilar. Kimki ayta olmay to'xtab qolsa o'yindan chetlashtiriladi. O'yin davomida qaysi o'quvchi oxirigacha qolsa, ya'ni so'z ayta olmay to'xtab qolmasa o'sha o'quvchi lider deb topiladi.

6. Lug'at diktantlaridan foydalanish. Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun lug'at diktantlari mavjud. O'qituvchi darsdan tashqari vazifa sifatida o'quvchilardan 10-15 ta so'z yodlab, uning yozilishi va talaffuzini o'rganib kelishini talab qiladi va haftada ikki marotaba bu so'zlardan lug'at diktantini oladilar.

O'qituvchi tomonidan ushbu metodlar rus tili darslari davomida qo'llansa, ta'lim samaradorligi oshadi. Xulosa qilib aytganda, dars davomida lug'atlar bilan ishlash, o'quvchilarga so'z ma'nosini tushuntirish o'quvchilarning lug'at boyligini orttiradi, dunyoqarashini kengaytirib, ularning kreativligini rivojlantiradi. Lug'at ustida ishlashni rus tili darslarida reja asosida izchil olib borish zarur. Boshlang'ich sinflar uchun bu faoliyat murakkabroq bo'lishi mumkin. Agar lugat ishi qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o'quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldasheva, Sharofjon Sariyev "Lug'at ustida ishlash metodikasi"
2. Ikromov A. A. Improvement of action based games for young learners // Theoretical & applied science. – 2020. – №. 2. – c. 170-173.
3. Ikromov A. A. The influence of games on the development of intellectual and physical activity for preschool children // Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 3. – №. 4. – C. 324-328.
4. Aminovich I. A. Mastering of Motion (Action Based) Games for Primary School Pupils by Using Information and Communication Technologies //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 3. – C. 5-8.
5. Ikromov A. History of national outdoor games and their value in education of harmoniously developed generation //Young Scientist USA. – 2014. – C. 43-47.
6. Aminovich I. A. Research Activities in the Modern Educational Environment //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 15. – C. 244-248.
7. Numondjonovna D. G. The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
8. Davranova G. Collaboration between kindergarten and family //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.
9. Numondjonovna D. G. The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 7. – C. 28-31.
10. Numondjonovna D. G. et al. The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 54-57.
11. Davranova Gulbahor N. Advantages of Using Modern Information Technologies in Teaching Russian Language for Primary School Students //American journal of social and humanitarian research. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 333-338.
12. Ikromova A. A. The Concept Of Pedagogical Skills, Its Role And Importance In Teaching //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 08. – C. 122-126.
13. Ikramova A. Scientific and theoretical views of poetic drama in russian and uzbek literature

14. Ikramova A. A., Ikramova N. A. Factors affecting the development of american drama //E-Conference Globe. – 2021. – C. 446-451.

15. Ikramova A. A. The genesis of drama in western and uzbek literature //E-Conference Globe. – 2021. – C. 496-501.

“TIL VA NUTQ” MARKAZINING BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O’RNI

**Turdieva Mohira Jo’raqulovna,
Buxoro davlat universiteti,**

Maktabgacha ta’lim kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari oldida turgan dolzarb masalalardan biri tarbiyalanuvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada o’stirish, muloqotga tayyorlash va shu orqali badiiy rivojlanish, dunyoni badiiy tasavvur etish ko’nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu maqolada tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirish ularning nutqini yangi, yanada murakkab va keng qirralarini o’zlashtirish masalalari va metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiya, tarbiyachi, nutq, muloqot, ijodiy rivojlanish, ta’lim, agrammatizm, nutqiy aloqa, o’yin, didaktik o’yinlar, ta’limiy topshiriqlar, bilish kompetensiyalari.

Bugungi kunda davlat maktabgacha ta’limdagi zamonaviy talablar va tarbiyalanuvchining shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim jarayonining mazmunini uni tashkil etish to’g’risidagi yangi tushunchalarni belgilab berdi. Unga ko’ra, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni o’qitish va tarbiyalash bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirish asosiy maqsad sanaladi.

Darhaqiqat, bolalarning aqliy jarayonini har tomonlama rivojlantirish uchun avvalo ularning nutqini o’stirish kerak. O’zlashtirilayotgan yangi so’zlarni bola ma’nosini tushunishi, uni nutqida erkin ifoda etishga mos bo’lishi kerak[1]. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o’z fikrlarini umumlashtirish va bayon qilishni o’rganadi. Ayni jarayonda tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini badiiy asarlarni innovatsion usullardan foydalangan holda tanishtirish, ularning qiziqishlari va badiiy tasavvurlarini tarbiyalabgina qolmay, ularning bog’lanishli nutqini ham faol ravishda shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Afsuski, bugungi kunda badiiy asarlar (ham nasriy, ham nazmiy) namunalarini bolalarga o’rgatishning innovatsion usullarini amaliyotda foydalanishga mo’ljallangan media materiallar, ko’rgazmalar yetarli emas[3]. Buning asosiy sababi shundaki, ilmiy va uslubiy jihatdan badiiy asarlarni innovatsion usullar asosida o’rgatishga asoslangan nutqni rivojlantirish tizimi hali ishlab chiqilmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ona tilini o’qitishning turli xil yondashuvlarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, nutq o’stirishning nazariy va amaliy muammolarini o’rganish quyidagi nazariy tamoyillarni tan olishdan kelib chiqadigan umumiy nuqtaga ega:

nutq o’stirishning asosi kommunikativ yondashuv bo’lishi kerak;

- ta’lim shartlari tabiiy aloqa sharoitlariga yaqinroq bo’lishi kerak;
- motivatsiya asosidagi topshiriqlar bolalar ijodkorligini tarbiyalashi kerak[4].

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga badiiy asar namunalarini o’rgatish sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarning tahlili quyidagicha xulosa qilishga imkon beradi, nutqni rivojlantirish - bu bolada markaziy rol o’ynaydigan ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirishning juda murakkab va ko’p qirrali jarayoni, individual rivojlanish. Bu o’z-o’zidan paydo bo’ladigan jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir. Bolaning nutqni rivojlantirish jarayonini boshqaradigan tarbiyachi-pedagog ushbu ta’limiy sharoitning qonuniyatlari, mexanizmlari va xususiyatlarini bilishi va nutqiga ta’sir ko’rsatishning eng samarali usullarini tanlashi kerak. Bolaning nutqini rivojlantirish ko’p jihatdan uning ruhiyatiga, ijtimoiylashuviga bog’liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish – bu nafaqat bola eshitgan nutqga taqlid qilish, balki murakkab psixologik jarayondir. Ushbu jarayon umuman bolalarda aloqa faoliyatini rivojlantirish va avvalambor, muloqotga bo’lgan ehtiyoj bilan bog’liq bo’ladi. Bolaning so’z boyligini kengaytirish unga o’z tajribalarini yanada kengroq va xilma-xil ifodalashni o’zlashtirishga imkon beradi. Bolalarning ertak, afsona, hikoya, matal, maqol, tez aytish, topishmoq, she’rlar orqali adabiy tilni o’zlashtirishi natijasida ularning to’g’ri og’zaki nutqini shakllantirish maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat:

- nutqning tovushli madaniyatini rivojlantirish;
- so’z boyligini boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;